



GENERAL DESCRIPTION OF THE PREVENTION OF OPPRESSION AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Yulduz Makhtumova

Independent Researcher (PhD)

Public Security University of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Women, oppression and violence, prevention, victim, conditions, prevention, general, special, individual, victimological prevention.

Received: 04.02.25

Accepted: 06.02.25

Published: 08.02.25

Abstract: This article analyzes issues related to the general description of the prevention of oppression and violence against women. In addition, this article also examines the general description of the prevention of oppression and violence against women from all aspects and its victimological aspects and components. It is also noted that in order to identify and eliminate the causes of oppression and violence against women and the conditions that allow them, a system of legal, social, organizational and other measures of general, special, individual and victimological prevention of violations can be taken.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLAR PROFILAKTIKASINING UMUMIY TAVSIFI.

Yulduz Maxtumova

Mustaqil izlanuvchi (PhD)

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, tazyiq va zo‘ravonliklar, profilaktika, jabrlanuvchi, shart-sharoitlar, oldini olish, umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining umumiy tavsifiga doir masalalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining umumiy tavsifini har jihatdan o‘rganish va buning viktimologik jihatlari, tarkibiy qismini tashkil etishi yuzasidan ham fikrlar o‘rganildi.

Shuningdek, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimichoralari ko'rilishi mumkinligi ham ta'kidlab o'tilgan.

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПРИТЕСНЕНИЙ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Юлдуз Махтумова

Независимый исследователь

Республика Узбекистан Университет общественной безопасности

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Женщины, угнетение и насилие, профилактика, жертва, условия, профилактика, общая, специальная, индивидуальная, виктимологическая профилактика.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные с общей характеристикой предотвращения притеснений и насилия в отношении женщин. Кроме того, в данной статье изучена общая характеристика профилактики угнетения и насилия в отношении женщин и девочек во всех аспектах, а также изучены виктимологические аспекты и ее состав. Также отмечено, что правовые, социальные, организационные и другие меры общей, специальной, индивидуальной и виктимологической профилактики правонарушений применяются в целях выявления и устранения причин притеснений и насилия в отношении женщин и условий, способствующих их осуществлению. можно увидеть систему событий..

KIRISH: Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish borasida bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 2019 yil 2 sentyabrdagi O'RQ-561-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 4 yanvardagi 3-son Qarori bilan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi tartibini belgilab beruvchi norma qabul qilingan. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda ham xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishi qilib belgilangan. Har bir xotin-qiz zo'ravonliksiz hayotda xavfsiz va farovon yashashga haqli. Uning bu huquqlarini poymol qilish, tazyiq o'tkazish qonun bilan himoyalanaadi.[1], "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"[2] gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3] gi farmoni qabul qilindi.

Butun dunyoda xotin-qizlarlar nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlab borilmoqda zero Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarni aniqlash, ularga barham berish, tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon bera'etgan shart-sharoitlarni aniqlash kabi muamolar o'z ko'lamiga ko'ra global muammodir. Bu turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatiladi. Ayollardan nafratlanuvchi erkaklarni faqat qashshoq yoki badavlat, oliy ma'lumotli yoki ma'lumoti yo'q, yevropalik yo osiyolik deb ajratib bo'lmaydi. Bundaylarning alohida bir millati yo e'tiqodi bo'lmaydi.

Shuningdek, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasining vazifalari sifatida tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlar tizimini to'g'ri tanlash va tazyiq va zo'ravonlik obyektiga nisbatan yo'nalyirish, huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarningni aniqlash, ularga barham berish; tazyiq va zo'ravonlikning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon bera'etgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish (zararsizlantirish), xatti-harakatlari g'ayriijtimoiy yo'nalishda bo'lgan alohida toifadagi shaxslarni yakka tartibda tarbiyalash va qulay turmush sharoiti bilan ta'minlash, g'ayrihuquqiy qilmishlarning oldini olish, qonunga itoatkorlik xulq-atvorini rag'batlantiruvchi omillarni faollashtirish, g'ayriijtimoiy xulq-atvor e'ki tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kabilar oldiga surilmoqda.

Shunday ekan, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishda xotin qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarga jamiyat munosabati, muammolari ko'p jihatdan katta o'rin egallaydi. Xotin qizlarga nisbatan tazyiq va

zo‘ravonliklarning profilaktikasini tashkil etishda uni amalga oshiruvchi subyektlar va o‘tkaziladigan chora-tadbirlar tizimini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligiga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining X bobi Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlariga qaratilgan bo‘lib unga ko‘ra konstitutsiyaning 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayoting boshqa sohalarda teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydi.” – deya aytib o‘tilgan.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi avvalo profilaktika tushunchasiga biroz to‘xtalish lozimdir. Keltirilgan ma‘lumotlarga asosan aytish mumkinki, “«profilaktika» tushunchasi grekcha «prophylaktikos» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda «saqlash, ehtiёт qilish» (предохранительный) ma‘nosini” beradi. «Profilaktika» tushunchasiga «oldini olish, extiyot chorasi(ni) ko‘rish, oldindan bartaraf qilish» (предотвращение), «xabardor qilib qo‘yish, ogohlantirish, oldini olish» (предупреждение), «saqlash, ehtiёт qilish» (предохранение) so‘zlari sinonim so‘zlar hisoblanadi. [3; «Slovari i entsiklopedii na Akademike» (<https://dic.academic.ru>) sayti]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu tushunchaga «odamlar sog‘lig‘ini saqlash, kasalliklarning paydo bo‘lishi va tarqalib ketmasligining oldini olish, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash va uzoq umr ko‘rishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui» mazmunida izoh berilgan. «Profilaktika» tom ma‘noda esa, «umuman, biror hodisaning oldini olish, mexanizm, mashinalarning muddatidan oldin ishdan chiqishi, buzilishidan saqlash uchun ko‘riladigan choralar» tariqasida tushuniladi [2; –T., 2007. –B. 187]

Yaqin-yaqingacha «profilaktika» va «oldini olish» tushunchalari jinoyatga nisbatan qo‘llanilib kelingan.

«Jinoyatchilikning oldini olish» tushunchasi qator ijtimoiy-huquqiy fanlarda o‘ziga xos mazmun va mohiyat asosida talqin etiladi. Ammo kriminologiya fanida ushbu tushunchaga alohida yondashiladi, chunki u kriminologiya fanining predmeti doirasiga kiruvchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. [4; 272-b.].

Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi [3; S.Xojaqulov–T., 2018.27-b].

Huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasi – chora-tadbirlar tizimi (majmui) emas, balki faoliyatdir[. 3;S.Xojaqulov– T., 2018]. Deya baholaydi S.Xojaqulov.25-b]

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish bevosita 2014 yil 14 mayda 370-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga asosan hamda 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunidan kelib chiqqan holda tavsiflanadi.

Q. Abdurasulova jinoyatchilikni profilaktika qilish turlarini shunday taqsimlaydi. “Ilk profilaktika tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U g‘ayri-ijtimoiy, g‘ayrihuquqiy xulq-atvorni dastlabki bosqichda yoq ogohlantirishni nazarda tutadi. Bunda profilaktika tadbirlarini amalga oshirishni boshlashga muayyan g‘ayriijtimoiy qilmish yoki xulq-atvor, chunonchi: manmanlik, qo‘pollik, yolg‘on-chilik va boshqa salbiy harakatlar yoxud shaxsga boshqa odamlar salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligining aniqlanganligi signal bo‘lishi mumkin.

Bevosita profilaktika jinoyatni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabablar va shart-sharoitni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Residivni profilaktika qilish takroran jinoyat sodir etishga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi.” Dastlabki profilaktika shaxsda jamiyatga zid qarashlar shakllanishi, uning axloq va huquq normalariga zid qilmish sodir etishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir[6;Ismailov I. va boshqalar. 2011. –B. 179].

S.Xujaqulov Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasiga quyidagicha tarif beradi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish (zararsizlantirish)ga yo‘naltirilgan huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa (iqtisodiy, tarbiyaviy, tashkiliy, informasion, maxsus) chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga qamrab olgan faoliyat huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi”.

Shuningdek, S.Xujakulov profilaktik ta‘sir ko‘rsatish obyektlarining xususiyatiga ko‘ra huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini quyidagi ikki turga ajratish tavsiya etgan:

- 1) shaxslarni huquqbuzarlik sodir etishdan tiyishga yo‘naltirilgan «huquqbuzarliklarning kriminologik umumiy profilaktikasi»;
- 2) shaxslarni huquqbuzarliklardan jabrlanishini oldini olishga yo‘naltirilgan «huquqbuzarliklarning viktimologik umumiy profilaktikasi».

Q. Abdurasulova jinoyatchilikni profilaktika qilish turlarini shunday taqsimlaydi. “Ilk profilaktika tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U g‘ayri-ijtimoiy, g‘ayrihuquqiy xulq-atvorni dastlabki bosqichda o‘gohlantirishni nazarda tutadi. Bunda profilaktika tadbirlarini amalga oshirishni

boshlashga muayyan g'ayriijtimoiy qilmish èki xulq-atvor, chunonchi: manmanlik, qo'pollik, èlg'on-chilik va boshqa salbiy harakatlar èxud shaxsga boshqa odamlar salbiy ta'sir ko'rsataètganligining aniqlanganligi signal bo'lishi mumkin.

Bevosita profilaktika jinoyatni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar va shart-sharoitni aniqlash va bartaraf etishdan iborat. Residivni profilaktika qilish takro-ran jinoyat sodir etishga imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit va sabablarni aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi.”[3;(111-115 b)]

Q.A. Sayidqulovning fikricha “O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 43-moddasida berilgan«Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikadir» degan ta’rif to‘liq va mukammal emas[Q.Saidqulov “ – T., 2020.25-26-b]

Q.A. Sayidqulov ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyati – bu har qanday shaxsning, xususan huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxsning jabrlanuvchiga aylanishining oldini olish, huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek ularning takror jabrlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, jabrlanishni keltirib chiqaruvchi vaziyat(holat)lar va sabab-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi huquqiy, ijtimoiy tashkiliy, psixologik, ma’naviy, ma’rifiy, tibbiy, pedagogik va boshqa chora-tadbirlari majmuini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, birinchidan, jamiyatda inson huquqlarini va qonun ustuvorligini ta’minlashga bo‘lgan talabning kuchayib borishi, ikkinchidan, uning ochiq va shaffof olib borilishiga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi, uchinchidan, viktimologik profilaktik chora- tadbirlarni umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktik ta’sir bilan uyg‘unlikda amalga oshirish jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda. [8;Q.Saidqulov “ – T., 2020.30-31-b]

TADQIQOTNING USULLARI: Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi umumiy tavsifini mavzusini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi haqida huquqiy, iqtisodiy adabiyotlarni hamda statistik ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi rivojlanishi bo‘yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarni o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanildi.

Ilmiy tahlil jarayonida umumlashirish, taqqoslash ilmiy tadqiqot usullaridan hamda tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

NATIJALAR: Yuqoridagi fikr mulohaza va ilmiy yodashuvlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki profilaktika- barcha normativ qonuniy va qonunosti xujjatlari va ichki tartib qoida nizimlarida belgilangan tartib qoidalarga zid harakat yoki harakasizliklarning oldini olishga qaratilgan turli uslub va shakldagi chora- tadbirlar mexanizmidir. Chunki oldini olish faqatgina shaxs faoliyati va davlat majburlov va ogohlantirish tizimidangini iborat emas. Misol uchun sodir etilishi huquqbuzarlik ekanligi va jazo chorasi belgilanganligini ifodalovchi plakatlar, bukletlar, bannerlar ham profilaktikaning bir qismini tashkil etadi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasiga keladigan bo‘lsak huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish, tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon beraetgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyatidir va bu jarayon o‘z-o‘zidan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimini, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan xoli bo‘lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizim qamrab oladi. Bu muammo o‘z ko‘lamiga ko‘ra global muammo. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish chora-tadbirlari maxsus obektga qaratilgan bo‘ladi ya’ni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabirlangan xotin-qizlar va yoki voyaga etmagan o‘smir qizlar tashkil etadi. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olish ta’sir ko‘rsatish obektlarining xususiyatiga ko‘ra, maxsus va viktimologik hamda ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarining xususiyatiga ko‘ra, umumiy profilaktika va yakka tartibdagi profilaktikadan iborat bo‘lishi mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi bu keng jamoatchilikni jalb etish, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, hisobini yuritish, tahlil qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, kam kuch va vaqt sarflab aholiga profilaktik ta’sir ko‘rsatgan

holda ularda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish va huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligi hissini uyg'otish, shuningdek xotin-qizlarni huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi haqida ogoh etish hamda tazyiq va zoravonliklardan himoyalashning usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish orqali ularning jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishdan iborat.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning oldini olishning maxsus hamda yakka tartibdagi profilaktikasi chora tadbirlari asosan tazyiq va zo'raonlik to'tkazuvchiga qaratilgan kompliks chora tadbirlar iboratdir.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning oldini olishning viktimologik profilaktikasi tazyiq va zo'raonlikdan jabirlanish extimoli yuqori bo'lgan yoki jabirlangan Xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan kompleks chora tadbirlardir. Bunda sodir etilgan va yoki sodir etilishi taxmini bo'lgan tazyiq va zo'raonlik turiga asosan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning oldini olish subektlari jabirlanuvchi xotin-qiz uchun viktimologik tarzda yondashib profilaktik chora tadbirlarni yuritadi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning profilaktikasining umumiy maqsadi- Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning oldini olish, tazyiq va zo'raonliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, tazyiq va zo'raonliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarini yo'naltirishdir

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning profilaktikasining umumiy vazifalari- tazyiq va zo'raonliklarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlar tizimini to'g'ri tanlash va tazyiq va zo'raonlik obyektiga nisbatan yo'nalyirishdan iboratdir. huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash; Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarningni aniqlash, ularga barham berish; tazyiq va zo'raonlikning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish (zararsizlantirish); xatti-harakatlari g'ayriijtimoiy yo'nalishda bo'lgan alohida toifadagi shaxslarni yakka tartibda tarbiyalash va qulay turmush sharoiti bilan ta'minlash; g'ayrihuquqiy qilmishlarning oldini olish; qonunga itoatkorlik xulq-atvorini rag'batlantiruvchi omillarni faollashtirish; g'ayriijtimoiy xulq-atvor yoki tazyiq va zo'raonliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'raonliklarning profilaktik ta'sir ko'rsatish obyektlar-bu tazyiq va zo'raonliklar, tazyiq va zo'raonliklardan jabirlanuvchi, tazyiq va zo'raonlik o'tkazuvchi shaxs va uning kriminologik partireti hamda profilaktik chora-

tadbirlarni amalga oshiruvchi subyeklar va tazyiq va zo‘ravonliklardan jabrlanuvchi, tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazuvchi shaxsi o‘rtasidagi munisabatlardir.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi obyektlarini quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq, bo‘lar edi. Yaniy birinchidan profilaktik ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlarga ko‘ra: 1) g‘ayriijtimoiy xulq-atvor; 2) tazyiq va zo‘ravonliklarlar; 3) tazyiq va zo‘ravonliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bera‘etgan shart-sharoitlar;

Ikkinchidan profilaktik ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlari yo‘naltirilgan shaxslar doirasiga ko‘ra: 1) fuqarolar; 2) g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar; 3) tazyiq va zo‘ravonliklarlar sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar; 4) tazyiq va zo‘ravonliklarlar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar; 5) tazyiq va zo‘ravonliklardan jabrlanuvchi xotin qizlar; 6) tazyiq va zo‘ravonliklardan jabrlanish ehtimoli holatida bo‘lgan xotin qizlarlar. «Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasi» tushunchasiga ta‘rif berishda ushbu faoliyatning obyekti va subyektlariga oydinlik kiritish muhimdir.

Bu yerda G‘ayri ijtimoiy xulq atvorli shaxslar mavzusida to‘xtalib o‘tamiz, O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida «g‘ayriijtimoiy xulq-atvor — shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati èki harakasizligi» mazmunida ta‘rif berilgan. Demak, «g‘ayriijtimoiy xulq-atvor» o‘zida turmush tarzi, harakat va harakasizlikni ifodalaydi.

Odatda, «g‘ayriijtimoiy xulq-atvor» huquqbuzarliklarning boshlang‘ich bosqichi sifatida qaraladi. Shu boisdan, «g‘ayriijtimoiy xulq-atvor» huquqbuzarliklar profilaktikasining, ayniqsa, huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasining ob‘yektini tashkil etadi va shuning uchun ham «g‘ayriijtimoiy xulq-atvor» profilaktikaning obekti sifatida e‘tirof etilishi va ko‘rib chiqila‘etgan ta‘rifda o‘z ifodasini topishi lozim hisoblanadi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning umumiy profilaktikasini tazyiq va zo‘ravonliklarning sodir etilish sabab shart shroitlaridan kelib chiqib uch bosqichga bo‘lib o‘rganish lozim bo‘ladi.

Birinchi bosqich fuqarolarda jumladan xotin qizlarda tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilishi uchun muhit yaratib berilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida ko‘nikmalar hosil qilish, ya‘ni bunda xotin-qizlarga o‘z haq-huquqlarini tushuntirish, ko‘rgazmali palakatlar, tarqatma materiallar orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan tazyiq va zo‘ravonliklar haqida ogohlantirish, maktab o‘quvchi qizlari, Oliy ta‘lim talabalari, mahallalarda xotin-qizlar o‘rtasida turli xil slayd va video roliklar orqali tushuntirishlar berish va ogohlantirish qizqa qilib aytganda aholini tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lmasligi uchun unga qarshi imunitet yaratish va yoki tarbiyalash.

Ikkinchi bosqich bu Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilishi uchun muhit mavjud bo‘lgan taqdirda uning oldini olish uchun ushbu muhitni yo‘qotish va yoki xotin-qizlarni ushbu muhitdan ximoya qiluvchi umumiy profilaktikani tashkil qilish bunda aholi gavjum bo‘lmagan tashlandik lekin umumiy foydalanish ko‘laklari va jamoat joylariga chiroqlar va kameralar o‘rnatish, aqlan nosog‘lom shaxslar va ichkilikka ruju qo‘ygan shaxslarni doimiy kuzatuv ostiga olish, norkalogiya va asab-ruhiy dispnsirlariga joylashtirish, aholi gavjum bo‘lgan joylarda doimiy tartibni saqlovchi xodimning bo‘lishi kabilardir.

Uchinchi bosqich bu Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklardan so‘ning uning takroran sodir etilishini oldini olish maqsadida jabirlanuvchi va tazyiq va zo‘ravonlik sodir etuvchi shaxslarga nisbatan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning profilaktikasining maxsus, biktimologik hamda yakka tartibdagi usullarini qo‘llash. Bunda jabirlanuvchi va zo‘ravon bilan profilaktik suxbat o‘tkazish, sodir etilgan noqonuniy hatti-harakatning og‘irlik darajasi va keltirgan ma‘naviy jismoniy ziyonidan kelib chiqib jazolangandan so‘ng profilaktik hisobga va yoki ma‘muriy nazoratga olish, jabirlanuvchining holatidan kelib chiqib unga tibbiy, moddiy-ma‘naviy yordam taklif qilish, ko‘rsatish va unga qununiy haq-huquqlarini tushuntirish kabi.

MUHOKAMA: Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik asosan jismoniy kuch ishlatish orqali sodir etilishini va ularga xos xususiyatlarni tadqiq qilishga harakat qilishgan. Zo‘ravonlikni boshqa shaxsga nisbatan qasddan jismoniy zo‘rlik ishlatib, shaxsning sog‘lig‘i yoki hayotiga zarar yetkazishga qaratilgan jismoniy daxlsizligini buzishda namoyon bo‘ladi. Lekin, bunday holatda jabrlanuvchiga ruhiy ta‘sir ko‘rsatishni ham inkor qilmaydi. Jismoniy zo‘ravonlikni urish, tepish, sog‘liqqa zarar yetkazish, qamab qo‘yish orqali ta‘sir ko‘rsatishdir deb o‘ylaymiz.

Bizningcha, jismoniy zo‘ravonlikda jabrlanuvchiga jismoniy zarar yetkazish orqali unga nisbatan turli darajada shikast yetkazishni ham inobatga olish lozim. xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik shaxsning sog‘lig‘i, hayoti va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish bilan qo‘rqitib ijtimoiy xavfli, g‘ayri qonuniy ta‘sir ko‘rsatishdir. Jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish – bu jabrlanuvchi (yoki jabrlanuvchilarni) jismoniy zo‘ravonlik ishlatish bilan qo‘rqitishdir. xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik ko‘pincha jismoniy kuch ishlatish orqali hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan holda sodir etiladi. Jismoniy zo‘ravonlikda kuch ishlatish, kaltaklash, badanga nisbatan turli darajada shikast yetkazish holatlari namoyon bo‘ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi masalalrni yoritish va o‘zgartirish va qo‘shimchakar kiritishni ustivor deb bilishimiz lozim:

- ✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi keng jamoatchilikni jalb etish subyektlar doirasini kengaytirish;
- ✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish;
- ✓ Er-xotinlar bir-birining huquq va mas’uliyatlarini hurmat qilishlari, o‘zaro rollarni ochiq muloqot orqali taqsimlashlari kerak;
- ✓ aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish;
- ✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, hisobini yuritish, tahlil qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ✓ kam kuch va vaqt sarflab aholiga Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarga qarshi profilaktik ta’sir ko‘rsatgan holda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish va huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligi hissini uyg‘otish;
- ✓ xotin qizlarni huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi haqida ogoh etish hamda tazyiq va zoravonliklardan himoyalashning usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish orqali ularning jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;
- ✓ Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning maxsus hamda yakka tartibdagi profilaktikasi chora tadbirlari asosan tazyiq va zo‘ravonlik to‘tkazuvchiga qaratilgan kompleks chora tadbirlar tizimini kengaytirish;

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish borasida qabul qilingan normativ-xuquqiy hujjatlar ijrosi ustidan nazorat qilish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarga qarshi profilaktikasini takomillashtirish va tasir ko‘rsatish doirasiga ko‘ra taqsimlash kabilar.

XULOSA: Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e’tiborga olgan holda o‘rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Zeroki, Prezidenti maslahatchisi S.Mirziyoyeva ta’kidlaganlaridek, “Xotin-qizlarimiz zo‘ravonlik va zulm ob’ekti bo‘lmasin Hech qanday zo‘ravonlik jazosiz qolmasligi kerak”[И.Исmoilов .Т/2023 yil (4-bet)] – deya ta’kidlab o‘tganlar.

Xulosa qilib aytganda, Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat, iste’dod va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, ularni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimizda ayolni ulug‘lash, uni ijtimoiy

muhofaza qilish, jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar va ular asosida olib borilayotgan islohotlarni xotin-qizlarni samarali ijtimoiy himoya qilish va faollashtirishning innovasion modeli sifatida talqin etish mumkin.

REFERENCES/ СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/ ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Китоблар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston; Toshkent – 2023: 28-bet;
2. Yuridik atamalarining izohli lug‘ati: 1-jild. –T., 2007. –B. 187.
3. Q.Abdurasulova «Kriminologiya» darsligi (111-115 b)
4. IIV Akademiyasi «Kriminologiya» darsligi(2015yi)
5. O‘zbek tilining izohli lug‘at[159; 608-b.]
6. Ismailov I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarligining oldini olish: O‘quv-amaliy qo‘llanma. / Mas'ul muharrir
7. I.Ismailov. –T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, 2011. –B. 179.
8. Ismailov I. Huquqbuzarliklar profilaktikasida inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi // Huquqshunoslik istiqbollari: Ilmiy maqolalar to‘plami. Nashrga tayyorlovchilar SH.O.Mamadaliyev, I.YU.Fazilov, A.A.Amanov. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, –2015. –B. 27
9. Q.Saidqulov “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish” Yurid. fan. dok-ri. diss... – T., 2020.
10. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. dok-ri. diss... – T., 2006. – B. 160.
11. S.Xojaqulov «Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish” Yurid. fan. dok-ri. diss... – T., 2018.

4.Интернет манбалар:

1. Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son Qarori.
<https://lex.uz/docs/-3797625>
2. Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to‘g‘risida” 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494849>
3. «Slovari i entsiklopedii na Akademike» (<https://dic.academic.ru>) sayti
4. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2014 yil 14 maydagi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>.